FARG‘ONA VODIYSI AYOLLARINING O‘ZBEK MADANIYATI VA SAN’ATI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI.

Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
dotsenti v.b., f.f.f.d., (PhD)
Science id: FAN-0626-0050
Orcid: 0009-0006-4092-2757
ismoilovahajithon@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23121188

Annotatsiya: maqolada o‘zbek san’ati va madaniyati rivojlanishida Farg‘ona vodiysi ayollarning o‘rni bayon qilingan. Shu bilan birga vodiy ayollarining kiyinish uslubi, madaniy qiyofasi, zargarlik taqinchoqlari, hunarmandchilik an’analari orqali o‘zbek ayoli qiyofasini shakllantirishdagi roli tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, ayollar, san’at, madaniyat, milliy kiyim, zargarlik taqinchoqlari, hunarmandchilik.

Farg‘ona vodiysi ayollari asrlar davomida o‘zining yuksak ibosi, oilaparvarligi, mehnatkashligi va Sharqona latofati bilan ajralib turadi. Ushbu hududda yashovchi ayollar madaniyati, kiyinish uslubi va ijtimoiy hayotda o‘ziga xos boy an’analariga ega bo‘lib, o‘zbek ayoli madaniy qiyofasini namoyon qilishda kata ahamiyat kasb etadi. Vodiy ayollarining o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy qiyofasi milliy liboslarida, zargarlik taqinchoqlarida, hunarmandchilik an’analarida namoyon bo‘ladi.

Vodiy ayollarining kiyinish uslubi o‘zbek milliy kiyimlarining eng nafis namunalaridan biridir. Ayniqsa, Marg‘ilon ipakchilik maktabi mahsuli bo‘lgan xonatlas va adras Farg‘ona ayollarining ko‘rki hisoblanadi. Andijon, Namangan va Farg‘ona shahar atrofida esa, milliy ro‘mollar boshga o‘ziga xos, nihoyatda nafis va iboli qilib o‘rash keng tarqalgan. An’anaviy poyabzallar orasida yumshoq charmdan tayyorlangan mahsi va kavushlar vodiy ayollari orasida hamisha qadrlangan. Bundan tashqari vodiy ayollarida hashamatli zargarlik buyumlarini ham ko‘p uchratish mumkin. Farg‘onalik ayollar peshonaga taqiluvchi eng hashamatli va noyob tillaqosh (oltin qosh)lari, ro‘mol ustidan taqiladigan feruza va marjon toshlar bilan bezatilgan go‘zal bosh taqinchog‘i tilla-bargaklari bilan O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi taqinchoqlaridan ajralib turadi.

Farg‘onalik ayollar mehnatsevarligi, sarishtaligi va turli xalq hunarmandchiligi turlarida faolligi bilan tanilgan. Ipak qurtini parvarishlash, ipak tolalarni yigirish va atlas to‘qish jarayonlarida ayollarning hissasi beqiyos. Qalin va yupqa ipak va paxta tolasi, ipdan turli gazlamalar ishlab chiqarish ham rivojlangan va ularga hatto chet ellarda ham talab katta edi. Axsikentda ishlab chiqarilgan ipak va boshqa to‘qimachilik mahsulotlari Buyuk ipak yo‘li orqali olib o‘tilgan va sotilgan[1]. Chust do‘ppilari, Namangan va Marg‘ilon kashtachilik maktablarida mahoratli ayol usta-hunarmandlar faoliyat yuritadi. Ayollar asosan ipakchilik, to‘qimachilik, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanib kelsada, ammo diniy-ma’rifiy hayotda otinoyilar faol[2].

[1] Khatamova D. M. Ahsikent castle and the characteristic features of the baths in it//Международный научный журнал № 6 «Новости образования: исследование в XXI веке» 2023 –P.515-525
[2] Hoshimov D.D. XIX asr oxirida Farg'ona vodiysi aholisining turmush tarsi. // Journal of new century innovations Volume–88_Issue-1_November-2025. B-288-290

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Farg‘ona vodiysi xonandaligida ham ayollarning o‘rni juda yuqori. Vodiy ayollari o‘zlarining shirali ovozi, milliy maqom va katta ashula yo‘nalishidagi ijrolari, shuningdek, to‘y va marosimlardagi lapar hamda yor-yorlari bilan o‘zbek musiqa san’ati xazinasini boyitib kelmoqda. O‘zbek musiqa san’ati rivojida Marg‘ilonda tug‘ilgan O‘zbekiston xalq artisri Tamaraxonimning beqiyos hissasi alohida o‘rin tutadi. Tamaraxonimning san’ati nafaqat o‘zbek raqs va musiqasining rivojiga, balki gender tenglikni tarannum etishga ham katta hissa qo‘shgan. O‘rta Osiyo bo‘ylab gastrol safarlarida Sharq ayollari ozodligi va teng huquqlilikni ifodalovchi raqslarni namoyish etgan Tamaraxonimning ijodi sezilarli ravishda yuksaldi, keyinchalik “Sharq qaldirg‘ochi” nomini olish orqali xalqaro miqyosda tanildi. Uning “Tamara Xonim” nomi butun dunyo bo‘ylab tanilib, o‘zbek musiqa san’ati va raqs san’ati global miqyosda rivojlanishiga hissa qo‘shdi. U “Kelinchak” va “Dilhiroj” kabi kuylar ijro etdi. Tamara xonim 1937-yilda Parijdagi xalqaro ko‘rgazmadagi muvaffaqiyati milliy o‘zlikni ifoda etish va xalqaro miqyosda tanilish imkoniyatlarini anglatadi[3].

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi ayollari zamonaviy ilm-fan, tadbirkorlik, ta’lim va tibbiyot sohalarida ham faol yetakchilik qilib, o‘zlarining go‘zal sharqona qiyofalari va milliy qadriyatlarini muvaffaqiyatli saqlab kelmoqdalar.

Adabiyotlar

1. Khatamova D. M. Ahsikent castle and the characteristic features of the baths in it//Международный научный журнал № 6 «Новости образования: исследование в XXI веке» 2023 –P.515-525
2. Mamajonova D. A. Ajdodlar an’analari va zamonaviylik: Farg’ona vodiysi musiqasidagi ayollarning roli. International Journal of Science and Technology, 2025, 42–44
3. Hoshimov D.D. XIX asr oxirida Farg'ona vodiysi aholisining turmush tarsi. // Journal of new century innovations Volume–88_Issue-1_November-2025. B-288-290
4. Ismoilova X.M. Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlarini tadqiq etishning dolzarb masalalari. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi O‘zA Ilm-fan jurnali. Toshkent-2024. №11 (61) B-169-173.

[3] Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna. Ajdodlar an’analari va zamonaviylik: Farg’ona vodiysi musiqasidagi ayollarning roli. International Journal of Science and Technology, 2025, 42–44

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.